

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOTIROV SUNNATJON XUDOYBERDI O‘G‘LI

**SANOATDA QO‘LLANILUVCHI IONITLAR VA ULAR ASOSIDAGI
INTERPOLIMER TIZIMLARGA Cr(VI) IONLARI SORBSIYASI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Botirov Sunnatjon Xudoyberdi o‘g‘li

Sanoatda qo‘llaniluvchi ionitlar va ular asosidagi interpolimer tizimlarga
Cr(VI) ionlari sorbsiyasi 3

Ботиров Суннатжона Худойберди угли.

Сорбция ионов Cr(VI) промышленными ионитами и
интерполимерными системами на их основе 21

Botirov Sunnatjon

Sorption of Cr(VI) ions by industrial ion exchangers and interpolymer
systems based on them 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOTIROV SUNNATJON XUDOYBERDI O‘G‘LI

**SANOATDA QO‘LLANILUVCHI IONITLAR VA ULAR ASOSIDAGI
INTERPOLIMER TIZIMLARGA Cr(VI) IONLARI SORBSIYASI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi kamissiyasida B2024.1.PhD/K724 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik.-kimyo.nuu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muxamediyev Muxtarjan Ganiyevich**
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Yunusov Haydar Ergashovich**
texnika fanlari doktori, professor

Qutlimuratov Nurbek Matkarimovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "15"-mart soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; faks: (+99824)246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (16 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-67-71; 277-12-24; faks: (+99871) 246-07-88; 246-02-24. e-mail: rector@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" ____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "____" ____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
raisi k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi k.f.d., professor

M.A.Mahkamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi, aholi sonining ortishi, sanoat korxonalarining kengayishi hamda ularning faoliyati natijasida atrof-muhit obyektlarida og'ir va zaharli metal ionlarining miqdori ortib bormoqda hamda ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, galvanik sexlar, terini oshlash korxonalarining ajralib chiqadigan oqava suvlar tarkibida og'ir va zaharli metall ionlarining miqdori ruxsat etilgan normadan oshib bormoqda. Bu muammolarni bartaraf etishda, suvni samarali tozalashda ion almashinuvchi materiallardan keng foydalaniladi, ionitlar o'zining kimyoviy, mexanik, termik barqarorligi, ko'p marta ishlatilishi, boshqa tozalash usullaridan arzon va samaraliligi sababli muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sanoat ion almashinuvchi materiallar asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan inter polimer tizimlarni olinishiga, fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu asosida inter polimer tizimlar olinishining sharoitlarini optimizatsiyalash, ekspluatatsion samaradorligini, kimyoviy va termik barqarorliklarini oshirish, fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilash, og'ir va zaharli metall ionlarini sorbsion xossalarini oshirish hamda sanoatga tadbqiq qilish, ion almashinuvchi materiallar ishlab chiqarishda tannarxini kamaytirishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublikamizda samarali ion almashinadigan materiallarga bo'lgan talabning yuqoriligi tufayli sanoatda qo'llanadigan ionitlarning kimyoviy, fizik-kimyoviy xossalarini hamda ishlatilish sohalarini o'rganish va amaliyotga joriy etilishi bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi qarorida "Mahalliy ionitlar yordamida galvanik sexlarning oqava suvlarini zaharli xrom ionlaridan tozalash"ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu maqsadda sanoat ionitlari asosida uzoq tartibdagi ta'sirlarga ega bo'lgan inter polimer tizimlarni olish, olingan tizimlarni fizik-kimyoviy va sorbsion xossalarini o'rganish hamda ularni qo'llab sanoat oqava suvlarini kimyoviy tozalash asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PF-4992-son "Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son "O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlashda, mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon olimlari tomonidan sanoat va tabiiy polimerlarni modifikatsiya qilib turli xil ion almashinuvchi funksional polimer materiallarni sintez qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Olingan ion almashinuvchi materiallarni sanoat korxonalaridan chiqayotgan og‘ir va zaharli ionlarni tozalashda qo‘llab kelmoqdalar. Buning natijasida Cr(VI) ionlarini samarali yo‘qotish va ekologik muammolarning oldini olishga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Xususan, xorij olimlaridan N.Dawra, N.Dabas, K.Z.Elwakeel, A.M.Elgarahy, Z.A.Khan, Y.Chjan, Grzegorz Voycik, Violeta Neagu, O.N.Kononova, Fumixiko Ogata va boshqalar sanoat polimerlari hamda tabiiy polimerlardan olingan anionitlarga Cr(VI) ionlarining sorbsiya mexanizmlarini, fizik-kimyoviy xossalari hamda qo‘llanish sohalarini o‘rganishgan.

Mamlakatimizda ham ionitlar sintezi, fizik-kimyoviy xossalari o‘rganish bo‘yicha O‘.N.Musayev, M.A.Askarov, S.Sh.Rashidova, A.T.Jalilov, S.M.Turabjonov, X.A.Akbarov., T.M.Babayev, X.T.To‘rayev, O.N.Ro‘zimurodov, D.A.Gafurova, D.J.Bekchanov, N.T.Kattayev, T.X.Raximov, M.M.Karimov, M.K.Rustamov va boshqa ko‘plab olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib borgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida, asosan, tolasimon anionitlardan va ion almashinuvchi materiallar yordamida Cr(VI) ionlarini sorbsiyasini o‘rganish usullari keltirilgan. Lekin sanoat ionitlari va ular yordamida uzoq tartibli ta’sirlashuvga asoslangan interpolimer tizimlar olishning mexanizmlari, olingan uzoq tartibli ta’sirlashuvga asoslangan interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionlarining sorbsiyasi, fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-552101242 “Polivinilxlorid asosida amino va gidroksil guruhlar tutgan yangi ionitlarning olinishi hamda oqava suvlarini Cr(VI) ionlaridan tozalashda qo‘llanilishi” (2022-2025-yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sanoatda qo‘llaniluvchi ionitlar va ular asosidagi interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionlari sorbsiyasini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat ionitlari asosida uzoq tartibli ta’sirlashuvga ega interpolimer tizimlar olishning maqbul sharoitlarini aniqlash;

mahalliy va sanoat ionitlari hamda ular asosida olingan interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionitlarining adsorbsiyalanish jarayoni kinetikasini tadqiq qilish;

mahalliy va sanoat ionitlari hamda ular asosida olingan interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionitlarini adsorbsiyalanish izotermalarini tadqiq qilish va jarayon termodinamik parametrlarini asoslash;

Cr(VI) ionlarini adsorbsiya qilgan ion almashinuvchi materiallarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish;

funksional polimer materiallar asosida olingan interpolimer tizimlar va sanoatda ishlab chiqariladigan ionitlarning qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida PPE-1, AN-31, AB-17-8, KU-2-8 ionitlari, interpolimer tizimlar va bixromat tuzlari olingan.

Tadqiqotning predmeti adsorbsiya, desorbsiya, regeneratsiya, kinetika, izoterma, termodinamika, IQ- va Raman spektroskopiya, spektrofotometriya, XRF analiz.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullari, jumladan, IQ- va Raman spektroskopiya, termogravimetrik analiz, differensial kalorimetrik termik analiz, element analiz, spektrofotometriya, energiya-dispersion rentgen spektroskopiya, rentgen fazaviy o'zgarishlar, rentgen flouressent spektroskopiya kabi eksperimental usullaridan; adsorbsiya jarayonlarini o'rganishda izotermalarni Lengmyur va Freyndlix modellari bilan tahlil qilish hamda psevdobirinchi va psevdodikkinchi tartibli kinetik modellari yordamida adsorbsiya kinetikasini ifodalash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

AB-17-8 va KU-2 sanoat ion almashinuvchi polimer materiallari asosida, individual ionitlarga nisbatan elektr o'tkazuvchanligi yuqori, kuchli ionlangan yangi uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizim yaratilgan.

Anionitlar va interpolimer tizimga dixromat ionlari adsorbsiyasining kinetikasi, tadqiq qilingan va adsorbsion jarayon tezligi psevdodikkinchi tartibli kinetik modelga mos ekanligi keltirilgan, demak, jarayon geterogen bo'lishiga qaramasdan reaksiya tezligiga dixromat ionlari konsentratsiyasidan tashqari polimer tarkibidagi funksional guruhlar konsentratsiyasi ham ta'sir etgan.

Yakka holdagi anionitlarga hamda interpolimer sistemaga dixromat ionlarining adsorbsiya izotermalari tadqiq qilingan, olingan natijalar izotermalarning borishi PPE-1, AN-31 anionitlar uchun Freyndlix, AB-17-8 va AB-17-8 hamda KU-2 funksional polimerlar asosidagi interpolimer sistemalar uchun Lengmyur modeliga mos kelishi ko'rsatilgan.

Funksional polimerlar asosida olingan yangi interpolimer tizimning fizik-kimyoviy xossalari baholangan va interpolimer tizimning dixromat ionlariga nisbatan sorbsion sig'imi yakka holdagi PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlarga qaraganda yuqori ekanligi aniqlangan.

Interpolimer tizimlarni yakka holdagi anionitlarga qaraganda sorbsion sig'imi yuqoriligi anionit funksional guruhlarini interpolimer tizimdagi kationit sulfoguruhlari ta'sirida faollanishi bilan tushuntirilgan. EDXRF tahlil dixromat ionlarini faqat anionit funksional guruhlar tomonidan yutulishini, kationit funksional guruhlar adsorbsiya jarayonida qatnashmasligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sanoat ionitlari AB-17-8 anioniti va KU-2 kationiti asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizim olishning maqbul sharoitlari topilgan. Uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan interpolimer tizim yordamida zaharli

Cr(VI) ionlaridan oqava suvlarni samarali tozalash imkoniyati mavjudligi aniqlangan;

olingan interpolimer tizim yordamida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ning markaziy mexanik ta’irlash zavodi hamda Muborak gazni qayta ishlash zavodi galvanik sexlaridan chiqayotgan oqava suvlar tarkibidagi Cr(VI) ionlarini yuqori unum bilan ajratib olishi ko’rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi IQ, Raman spektroskopiya, termogravimetrik, differensial kolorimetrik termik analiz, spektrofotometriya, rentgen fazaviy o’zgarishlar, rentgen flouressent spektroskopiya kabi zamonaviy usullar qo’llanishi bilan aniqlanadi. Ion muvozanat, adsorbsiya jarayonlar kinetikasi esa psevdobirinchi va psevdodikinchi tartibli kinetik modellar yordamida tavsiflangan; adsorbsiya izotermasi esa Lengmyur va Freyndlix modellari tenglamalari bilan hisoblangan, adsorbsiya termodinamikasi haqidagi zamonaviy nazariyalarda keltirilgan va tenglamalar yordamida tadqiqotning amaliy qismidan olingan natijalarni qo’yib tahlil qilish orqali tegishli xulosalar chiqarilgan hamda matematik-statistik usullari bilan qayta hisoblash orqali ko’rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitini ma’lum bir masofada ushlab hamda elektr o’tkazuvchanligini o’lchash orqali uzoq tartibli ta’sirlashuvga asoslangan yangi interpolimer tizimlarni olishning ilmiy asoslarini yaratish hamda dixromat ionlarini sorbsiyasini kinetika va izotermalarini tadqiq qilish orqali interpolimer tizimlarning afzalligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati AB-17-8 anioniti va KU-2 kationiti asosida olingan interpolimer tizimlar individual ionitlarga qaraganda sanoat oqava suvlari tarkibidagi zaharli xrom (VI) ionlaridan yuqori unum bilan tozalash imkoniyatiga egaligi bilan aniqlanadi. Bu ularni esa atrof-muhitni muhofaza qilishda keng ko’lamda qo’llanilishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat ionitlari yordamida uzoq tartibli ta’sirlashuvga asoslangan yangi interpolimer tizimning fizik-kimyoviy xossalarni o’rganish bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Funksional polimerlar asosida “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda Interpolimer tizimlarga asoslangan oqava suvlarni tozalash qurilmasi yaratilgan hamda yaratilgan interpolimer tizimlar asosidagi qurilma “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ning markaziy mexanik ta’irlash zavodining “Galvanik sexi”dan chiqayotgan oqava suvlarni Cr(VI) ionlaridan tozalash uchun joriy qilingan (“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ning 2024-yil 17-oktyabrdagi № 01-02-5-XX-24-10-0129-sonli ma’lumotnomasi). Natijada kombinat chiqindi suvida mavjud bo’lgan dixromat ionlarining miqdori 50 mg/l dan 0.05 mg/l gacha kamayganligi aniqlangan.

Muborak gazni qayta ishlash zavodidan interpolimer tizimlarga asoslangan oqava suvlarni tozalash qurilmasi yaratilgan. Yaratilgan interpolimer tizimlar asosidagi qurilma Muborak gazni qayta ishlash zavodidan chiqayotgan oqava suvlarni Cr(VI) ionlaridan tozalash uchun joriy qilingan (2024-yil 21-oktyabrdagi № 873/G’K-10 sonli ma’lumotnomasi). Natijalar joriy qilinishi asosida oqava suvi tarkibida Cr(VI) ionlari konsentratsiyasi dastlabki 10 mg/l dan 0,03 mg/l gacha

kamayganligi aniqlandi, bu esa korxonadan chiqayotgan oqava suvlarning tozaligi tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi talablariga mos kelishini bildiradi va tashqi muhit ekologiyasiga salbiy ta‘sir qilmasligiga xizmat qiladi hamda ijtimoiy-iqtisodiy samara beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida 16 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola respublika, 2 ta (1 ta Scopus) maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyasi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 sahifani tashkil qilgan².

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi, yangiligi va zarurligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari keltirilib, obykti hamda predmetlari aniqlangan. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublikamizning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari to‘liq ochib berilgan hamda olingan natijalarning ishonchliligi isbotlangan. Erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritib berilgan hamda olib borilgan tadqiqot natijalarining amalga oshirilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmida keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xrom (VI) ionlarining turli ion almashinuvchi sorbentlar bilan adsorbsiyasi qonunyatlarini (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida, sanoat korxonalarida oqava suvlari bilan birgalikda atrof-muhitga chiquvchi metal ionlarining zararlari hamda zaharli dixromat ionlarining o‘simliklar dunyosiga, hayvonot olamiga, inson organizmiga hamda tabiatga keltiradigan salbiy ta‘sirlari sharhlangan. Sanoat oqava suvlari turli xil tabiiy, sintetik, granulalangan, membranali, tolasimon polimerlarni modifikatsiyalab tarkibida funksional ionagen guruhi mavjud bo‘lgan ion almashinuvchi materiallarga Cr(VI) ionlarining adsorbsiyasi ko‘rib chiqilgan. Zaharli dixromat ionlarini turli xil funksional ion almashinuvchi materiallar yordamida adsorbsiya kinetikasi, izotermasi, termodinamik qonunyatlarini, dixromat ionlarini adsorbsiyasi natijasida ionitlarda kuzatiladigan fizik-kimyoviy o‘zgarishlar va sanoatda qo‘llanilish sohalari o‘rganildi.


Ion almashinuvchi materiallarning o‘ziga xosligi, selektivligi, qo‘llanilish sohaslarining kengligi, kimyoviy, termik barqarorligi, katalitik, sorbsion xossalari yuqoriligi o‘rganilgan. Mazkur tadqiqot ishida nazariy va amaliy

² Muallif dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun kimyo fanlari doktori, professor D.J.Bekchanovga o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.

natijalarning tahlili asosida vazifalar belgilab olingan. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi hamda zarurligi asoslangan, belgilab olingan vazifalar, xossalarga ion almashinuvchi materiallarning ahamiyati hamda zaruriyati to'g'risida xulosalar keltirilgan. Jahon va respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chiqarish korxonalarida oqava suvlari tarkibidagi zaharli dixromat ionlaridan tozalash, atrof-muhit va ekologiyaga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishda ion almashinuvchi materiallarning keng ko'lamda qo'llanilishi, o'zni va ahamiyati bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ushbu bobda ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Funksional polimerlar asosida yangi interpolimer tizimlarning olinishi, sorbsion va fizik kimyoviy xossalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, funksional polimerlar AB-17-8 anioniti va KU-2 kationiti ishtirokida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizimlarning olinish qonuniyatlari, PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari hamda interpolimer tizimlarga dixromat ionlarining adsorbsiya kinetikasi, izotermasi, termodinamik qonuniyatlari va dixromat ionlarining adsorbsiyasidan keyin ion almashinuvchi materiallarning fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilingan.

Dastlab sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan funksional polimerlar AB-17-8 anion almashinuvchi qatronlari hamda KU-2 kation almashinuvchi qatronlari asosida yangi uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizimlarni olishda turli xil fizik-kimyoviy qonuniyatlari, massa ta'siri, o'zaro bir-biriga nisbatan masofa ta'siri o'rganilgan. Sanoat ion almashinuvchi materiallari asosida olingan uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlar olishda ionitlar va interpolimer tizimlarning distillangan suvdagi elektr o'tkazuvchanlik xossasi hamda interpolimer tizimlarning o'zaro bir-biri bilan joylashgan masofalarini kanduktometrik tahlili 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Ionitlar va interpolimer tizimlarning elektr o'tkazuvchanligi kanduktometrik usulda aniqlanishi (a) (masofa 1mm) va elektr o'tkazuvchanlikning ionitlar o'rtasidagi masofaga bog'liqligi (b).

Faollashtirish jarayonini ko'rsatish maqsadida AB-17-8 anioniti (OH^- holdida), KU-2 (H^+ holdida) va ushbu ion almashinuvchi materiallar asosida olingan interpolimer sistemalar bir-biriga nisbatan ma'lum masofada joylashtirildi; 48 soat mobaynida distillangan suvdagi faollashtirildi. Ion almashinuvchi materiallar va ular asosida olingan interpolimer tizimlarning distillangan suvdagi elektr o'tkazuvchanligini kanduktometrik usulda o'lchash orqali aniqlandi. Ion almashinuvchi materiallar va ular asosida olingan interpolimer tizimlarning suvdagi elektr o'tkazuvchanligi AB-17-8 anioniti uchun $3,8 \mu\text{S}/\text{sm}$, KU-2 kationiti

uchun 4.6 $\mu\text{s}/\text{sm}$ hamda ular asosida olingan interpolimer tizim solingan distillangan suvning elektr o'tkazuvchanligi esa 13.05 $\mu\text{s}/\text{sm}$ ni tashkil qildi. Interpolimer tizimlar tarkibidagi H^+ va OH^- ionlari o'zaro ta'sirlashib suv molekulasini hosil qiladi, natijada AB-17-8 anioniti tarkibidagi to'rtlamchi amin guruhning ionlanish darajasi hamda dixromat ionlariga nisbatan adsorbsion qobiliyati ortadi.

Uzoq tartibdagi ta'sirga asoslangan tizimlarda ion almashinuvchilar bir-biriga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmasdan, masofaviy o'zaro ta'sir qiladi. Bu ionlarning selektiv o'tkazuvchanligini ta'minlaydi va sorbsiya samaradorligini oshiradi. Funktsional polimerlar asosida olingan uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizimlar olishda ionitlarning bir-biriga nisbatan joylashgan masofasi ham muhim ahamiyatga ega, bunda ionitlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi yuzasidan hosil bo'ladigan ta'sirlashuvni o'rganish maqsadida AB-17-8 anioniti (OH^- hoida) va KU-2 kationit (H^+ hoida) bir-biriga nisbatan 2sm; 1,5sm; 1sm; 0.5sm hamda 0.1sm uzoqlikda joylashtirildi. Ionitlar tarkibidagi ionogen funktsional guruhlar bir-birining ionlanishini yaxshilashi elektr o'tkazuvchanligi konduktometrik usulda isbotlandi. Yuqoridagi 1(b)-rasmdan ko'rinib turibdiki, ionitlar orasidagi masofa o'zaro 1mm uzoqlikda joylashtirilsa ion almashinuvchi interpolimer tizimlarning elektr o'tkazuvchanlik xossasi va sorbsion sig'imi ham yuqori bo'ladi.


Uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlarni olishda AB-17-8 va KU-2 qatronlarining massa nisbatlarini (5:1; 4:1; 3:1; 2:1; 1:1 va 1:2; 1:3; 1:4; 1:5) o'zgartirish orqali tizimni sozlash mumkin. Natijalar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Uzoq tartibdagi ta'sirga asoslangan interpolimer tizimlarni olishda anionit va kationitlarning o'zaro mol nisbatlarining sorbsiya unumiga ta'siri.


Interpolimer tizimlar hosil qilishda ionitlarni o'zaro bir-biriga nisbatan mol nisbatlarda olinishi ham interpolimer tizimlarning sorbsion sig'imga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Biz olgan AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitlari asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan interpolimer tizimlarimizda AB-17-8 hamda KU-2 ionitlarining mol nisbatlari 1:1 bo'lganda sorbsiya unumi yuqori bo'ldi. Bunga sabab ikkala ionit ham bir xil tuzilishli sopolimerlar asosida olinganligi va funktsional guruhlarining miqdori bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli eritmada sorbsiya jarayoniga salbiy ta'sir qiluvchi qarshi ionlar harakati bo'lmaydi, bu esa, sorbsiya jarayonlari yuqori unum bilan borishiga imkon yaratadi.

AB-17-8 anionit va KU-2-8 kabi kationitlarni o'z ichiga olgan uzoq tartibdagi ta'sirga ega tizim makromolekulalar funksional guruhlarining bir-biriga masofaviy o'zaro ta'sir qilish prinsipi asosida ishlab chiqilgan (3-rasm).



3-rasm. Uzoq tartibdagi ta'sirga asoslangan tizimlarning olinish sxemasi.

Avvalo, ionitlarning sorbsion qobiliyati eritma pH muhitiga bog'liq bo'lganligi uchun kuchsiz anionit bo'lgan PPE-1 va AN-31 funksional polimerlarga Cr(VI) ionining turli xil pH muhitlarda adsorbsiyasi o'rganilgan.



4-rasm. PPE-1 (a) va AN-31 (b) ionitlari uchun turli xil pH muhitlarda Cr(VI) ionining yutilishi %da.

Yuqorida keltirilgan 4-rasmdan PPE-1 va AN-31 anionitlarida sorbsiya jarayonlari pH-3da yuqori darajada sodir bo'lishi ko'rinib turibdi. Cr(VI) ionlari pH muhitiga qarab CrO_4^{2-} , HCrO_4^- yoki $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ko'rinishda bo'ladi. pH 2-6 oralig'ida HCrO_4^- va $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari, asosan, muvozanatda bo'lib, pH ko'rsatkich qiymati ortishi bilan xromat ionigacha (CrO_4^{2-}) o'zgaradi. Binobarin, pH qiymatining pasayishi bilan anionitda musbat zaryadlar miqdori ortadi, bu esa, dixromat ionlarining yutilishini osonlashtiradi. Ammo pH-3dan kamayishi dixromat ionlarini xromat kislotaga aylanishiga olib keladi va uning yutilishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun pH muhitining qiymati 3,0 dan past bo'lsa Cr(VI) ionlarining adsorbsiyasi kamayib ketadi. Cr(VI) ionlarining ionitga sorbsiyalanishining optimal pH qiymati 3,0 bo'lib, AB-17-8 va interpolimer tizimlar uchun ham optimal pH qiymati 3,0 ekanligi kuzatiladi.

Sorbsiya jarayonining mexanizmini (masalan, kimyoviy reaksiya tezligi, diffuziyani boshqarish va massa uzatilishini) aniqlash kabi bir qancha kinetik modellardan foydalaniladi. So'nggi yillarda turli xil kinetik modellar psevdobirinchii tartibli, psevdobirinchii tartibli va boshqa bir qancha usullardan

foydalanilmoqda. Ushbu ishda ham PPE-1, AN-31, AB-17-8 va sanoat anionitlari asosida olingan interpolimer tizimlarga dixromat ionlarining adsorbsiyasi psevdobirichi tartibli kinetik modelning tenglamasidan ($\log(q_e - q_t)$ t-vaqtga nisbatan bog'liqlikdan) hamda psevdodikinchi tartibli kinetik modelning tenglamasidan (t/q_e va t-vaqtga nisbatan bog'liqlikdan) foydalanib topilgan tezlik konstantalari (k_1 va k_2) va korrelyatsiya koeffitsiyentlari (R^2) 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionlari sorbsiyasining kinetik ko'rsatkichlari.

Sorbent	Metall ionlari	Dastlabki kons. (mol/l)	Psevdobirichi tartibli			Psevdodikinchi tartibli		
			Muvozanat adsorbsiya miqdori q_e (mg g ⁻¹)	k_1 (g mg ⁻¹ min ⁻¹)	R^2	Muvozanat adsorbsiya miqdori q_e (mg g ⁻¹)	k_2 (g mg ⁻¹)	R^2
PPE-1	Cr ₂ O ₇ ²⁻	0.01	26,3	0,0076	0,8464	24,6	0,000153	0,8573
		0.025	34,04	0,00622	0,8493	37,7	0,000151	0,9755
		0.05	51,6	0,00714	0,9414	56,8	0,000144	0,9947
		0.075	90,6	0,00875	0,8956	80,0	0,000122	0,9967
		0.1	150,5	0,00967	0,8394	117,6	0,000121	0,9958
		0.125	89,8	0,00691	0,9096	175,4	0,000121	0,9988
		O'rtacha k_1 va k_2			0,00793			0,000134
AN-31	Cr ₂ O ₇ ²⁻	0.01	135,2	0,00944	0,9902	181,8182	0,0000266	0,9988
		0.025	204,533	0,00944	0,9639	312,5	0,00000995	0,9859
		0.05	270,4	0,00967	0,9666	357,1429	0,0000141	0,9828
		0.075	343,2	0,00990	0,9414	434,7826	0,0000126	0,9905
		0.1	416	0,00760	0,9819	588,2353	0,0000063	0,9891
		0.125	422,933	0,01013	0,8908	588,2353	0,0000266	0,9951
		O'rtacha k_1 va k_2			0,00937			0,0000116
AB-17-8	Cr ₂ O ₇ ²⁻	0.01	100,942	0,01497	0,7693	116,2791	0,0000884372	0,994
		0.025	184,211	0,01796	0,7453	227,2727	0,0000279769	0,9939
		0.05	278,8674	0,01958	0,7398	333,3333	0,000025395	0,9925
		0.075	310,2374	0,01981	0,7694	357,1429	0,0000302352	0,9959
		0.1	333,279	0,01819	0,8079	384,6154	0,0000291631	0,9963
		0.125	360,413	0,01842	0,7813	400	0,0000341717	0,9983
		0.25	388,493	0,01727	0,7835	416,6667	0,0000440031	0,9991
O'rtacha k_1 va k_2			0,00937			0,0000116		
Interpolimer tizim	Cr ₂ O ₇ ²⁻	0.01	103,93	0,01865	0,9069	106,38	0,00058	0,9999
		0.025	246,27	0,01704	0,7893	270,27	0,00005	0,9992
		0.05	350,74	0,01842	0,8002	400,00	0,00003	0,9971
		0.075	437,54	0,01865	0,787	526,32	0,00002	0,9981
		0.10	492,68	0,01842	0,8031	555,56	0,00002	0,9986
		0.125	539,30	0,01865	0,7864	625,00	0,00002	0,9991
		0,25	607,06	0,01981	0,7548	714,29	0,00002	0,9990
O'rtacha k_1 va k_2			0,018523			0,00010		

1-jadvaldagi ma'lumotlar psevdobirinchi tartibli model parametrlar qiymatlari PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va interpolimer tizimlarda dastlabki vaqtlarda Cr(VI) ionining yutilishi tez borganligini hamda so'ng sorbsiya tezligi sekinlashganligini bildiradi. Bunga sabab adsorbent yuzasida dixromat ionlari miqdori to'planishi va ionlar o'rtasidagi muvozanat yuzaga kelganligi bilan tushuntirish mumkin. Psevdodikinchi tartibli kinetik model uchun korrelyatsiya koeffitsiyenti psevdobirinchi tartibli model korrelyatsiya koeffitsiyentiga (R^2) nisbatan birga yaqin chiqqan va jadvaldagi kinetik parametrlar qiymatlari dixromat ionlarning PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va interpolimer tizimlarga yutilishi psevdodikinchi tartibli kinetik model tenglamasi tomonidan yaqqolroq ifodalanishidan dalolat beradi. Bu esa, sorbsiya jarayoni kinetikasiga dixromat ionlari konsentratsiyasi bilan birga ion almashinuvchi materiallar tarkibidagi amino guruhlar konsentratsiyasi ham ta'sir ko'rsatganligini bildiradi.

PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionlarining adsorbsiya mexanizmini chuqurroq tahlil qilish maqsadida adsorbsiya izotermalari zamonaviy nazariyalar yordamida tahlil qilindi. Anionitga Cr(VI) ionlarining adsorbsiya izotermalari konstantalarini Lengmyur va Freyndlax modellari chiziqli tenglamalari yordamida hisoblandi. Hisoblar Lengmyur va Freyndlax tenglamalari kordinatlari bo'yicha tuzilgan chizmalar asosida olib borildi. Chizmalar bo'yicha hisoblangan adsorbsiya izotermasining barcha konstanta va kattaliklari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionining sorbsiyasining Lengmyur va Freyndlax konstanta qiymatlari

ionitlar	Lengmyur konstantalari				Freyndlax konstantalari		
	q_{\max}	K_L	R_L	R^2	n	K_F	R^2
PPE-1	218.4	0,0077	0,998	0,9666	2.3	11,66	0,9982
AN-31	592.42	0.0003	0,999	0,9653	2,47	9.62	0,9897
AB-17-8	432,46	0,00104	0,693	0,9926	4,68	53,39	0,9875
Interpolimer tizimlar	620,78	0,00117	0,041	0,9923	5,71	12,03	0,9625

2-jadvalda sorbsiya izotermasining Lengmyur va Freyndlax tenglamalari bo'yicha barcha hisoblangan natijalari keltirilgan. Freyndlax parametrlari qiymatlariga ko'ra mos ravishda PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlari va interpolimer tizimlarga Cr(VI) ionlari $n=2,3$; 2,47; 4,68 hamda 5,71 ga teng, bu esa, ion almashinuvchi materiallarga dixromat ionlarining sorbsiyasi yuqori darajada borganligidan dalolat beradi. Lengmyur adsorbsiya nazariyasi hisoblashlari bo'yicha korrelyatsion koeffitsiyenti R^2 qiymatlari PPE-1 anioniti uchun 0,9666, AN-31 anioniti uchun 0,9653, AB-17-8 anioniti uchun 0.9926 va interpolimer tizim uchun esa 0.9923 ga teng. Freyndlax adsorbsiya nazariyasi hisoblashlari bo'yicha esa korrelyatsion koeffitsiyenti R^2 qiymatlari PPE-1 anioniti uchun 0,9982, AN-31 anioniti uchun 0,9897, AB-17-8 anioniti uchun 0.9875 va

interpolimer tizim uchun esa 0.9625 qiymatlariga teng. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, PPE-1 va AN-31 ionitlariga Cr(VI) ionlari sorbsiyasining izotermalari Freyndlixning izoterma hisoblashlari yordamida, AB-17-8 anioniti va interpolimer tizimda esa Lengmyurning izoterma tenglamasi yordamida to'laroq ifodalanishini aytishimiz mumkun.



5-rasm. Cr(VI) ionlarining turli xil anionitlarga adsorbsiyasi kinetikasi.


Yuqoridagi 5-rasmda Cr(VI) ionlarining turli xil anionitlarga yutilish kinetikasi berilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitidan iborat uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan interpolimer ionalmashinuvchi tizimlarga Cr(VI) ionining adsorbsiyasi eng yuqori bo'lgan. Buni 3-jadvaldan yaqqol ko'rish mumkin. Jadvalda keltirilgan natijalar 5-rasmdan qilingan xulosaga mos kelgan holda ushbu tizim Cr(VI) ionlarini oqava suvlardan to'liq ajratib olish uchun eng qulay ion almashinuvchi material deb hisoblasa bo'ladi.

3-jadval

Turli xil sorbentlarga adsorbsiya izotermalari asosida hisoblangan Cr(VI) ionlarining maksimal yutilish miqdori

Sorbent turi	PPE-1	AN-31	AB-17-8	Interpolimer tizim
q_{max} (mg/g)	218,4	592,42	459,18	620,78
Ajratib olish darajasi(%)	96	72	100	100


6-rasmda Cr(VI) ionlarining sorbsiyasidan keyin olingan ionit namunalarining XRF tahlili keltirilgan. Rasmdan yaqqol quyidagi xulosalar kelib chiqadi: sorbsiyadan keying anion almashinuvchi qatron namunalarida xromning yuqori miqdori aniqlandi, bu esa, adsorbsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini ifodalaydi. Ammo KU-2 sorbent kationit bo'lganligi uchun unda xrom ionlarining intensivligi aniqlanmagan.



6-rasm. Cr(VI) ionlarining sorbsiyasidan keyin olingan ionitlar namunalarining XRF tahlili (X-0,080 - KU-2, X-20 - AB-17-8, X-30 - KU-2 va AB-17-8 ionitlardan tuzilgan interpolimer ion almashinuvchi sistema).


Shuningdek, XRF tahlili anion almashinuvchi qatron matritsada xromning Cr(VI) shaklda ekanligini ko'rsatdi. Anion almashinuvchi qatron matritsada xromning Cr(VI) shaklida bo'lishi esa adsorbsiya mexanizmini, asosan, ion almashinuvi va elektrostatik bog'lanish jarayonlariga asoslanganligini isbotlaydi. KU-2 va AB-17-8 ionitlardan tuzilgan ion almashinuvchi sistemada xrom ionlarining intensivligi AB-17-8 anionitnikiga qaraganda yuqoriroqdir. Demak, bu sistema xrom ionlarni anionitga qaraganda samaraliroq yutish qobiliyatiga ega.

Dastlabki AB-17-8 qatroni va sorbsiyadan keyingi anionitning IQ-spektrlari o'rtasidagi farqlarni batafsilroq ko'rib chiqaylik. Dastlabki AB-17-8 qatroni spektrlarida 3360 cm^{-1} soha nam anionit tarkibidagi suv molekullaridagi vodorod bog'lanishlarga tegishli, 2925 cm^{-1} soha $-\text{CH}_2$ va $-\text{CH}_3$ alkil guruhlarining valent tebranishlarini, 1467 cm^{-1} va 1402 cm^{-1} sohalardagi deformatsion tebranishlari bir-birini qoplovchi alifatik zanjirlarni CH_2 hamda to'rtlamchi aminoguruhlarinikiga qarashli, 1632 cm^{-1} sohasidagi aromatik halqalarning $\text{C}=\text{C}$ bog'lari valent tebranishlari, 1205 cm^{-1} sohasidagi $\text{C}-\text{N}$ bog'larining valent tebranishlari, 975 cm^{-1} va 860 cm^{-1} sohalardagi $\text{C}-\text{N}$ bog'larining deformatsion tebranishlari alifatik hamda aromatik qismlarning borligini, 470 cm^{-1} sohasidagi $\text{C}-\text{C}$ bog'larining deformatsion tebranishlari esa anionit tarkibida uglerod skeletining mavjudligini ifodalaydi.



7-rasm. AB-17-8 (1) qatroni va $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlarini sorbsiyasidan keyingi anionit (2) IQ-spektrlari.

$\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ sorbsiyasidan keyingi anionit spektrlarida esa anionit tarkibidagi suv molekullardagi vodorod bog‘lanishni ko‘rsatuvchi guruhlarning valent tebranishlarini 3360 dan 3380 sm^{-1} sohasiga siljiganligi kuzatildi, bu anionitning amin guruhlari bilan $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari o‘zaro ta’sirlashganini qisman suv molekullari orqali bo‘lishini ko‘rsatadi. 2931 sm^{-1} sohasida $-\text{CH}_2$ va $-\text{CH}_3$ guruhlarning valent tebranishlari 1463 sm^{-1} hamda 1391 sm^{-1} sohalardagi deformatsion tebranishlari alifatik zanjirlarni, 1615 sm^{-1} sohasi aromatik halqalarni $\text{C}=\text{C}$ bog‘larining valent tebranishlari, 1245 sm^{-1} sohasidagi $\text{C}-\text{N}$ bog‘larining valent tebranishlari anionitda to‘rtlamchi amin guruhlarning mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi. 910 va 754 sm^{-1} sohalarda anionitda kuzatilmagan yangi simmetrik hamda asimmetrik deformatsion tebranishlari anionitning $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari bilan bog‘laganligini va $-\text{Cr}=\text{O}$ guruhlar mavjudligini ko‘rsatadi.




8-rasm. AB-17-8 (1) anionitini va $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlarini sorbsiyasidan keyingi anionitni (2) Raman-spektrlari.

IQ-spektroskopiyasi $\text{Me}-\text{O}$ bog‘lanishiga tegishli bo‘lgan tebranish sohasining intensivligini yanada yaqqolroq tahlil qilish maqsadida, biz Raman spektroskopik tahlilini ham o‘tkazdik. Yuqoridagi 8-rasmda AB-17-8 anionitni (1) va $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlarining sorbsiyasidan keyingi anionitning (2) Raman-spektrlari keltirilgan bo‘lib AB-17-8 qatronida kuzatilmaydigan yuqori chastotali to‘lqin uzunliklari 322, 870, 982 va 1948 sm^{-1} tebranish sohalarda paydo bo‘ldi. $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ sorbsiyasidan keyingi anionit spektrlarida 322 va 740 sm^{-1} tebranish sohalari $\text{Cr}-\text{O}$ bog‘lariga tegishli bo‘lib, $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari anionit tomonidan yutilishi hisobiga hosil

bo'lgan. 1450 cm^{-1} (C-N), 1600 cm^{-1} (C=O), 2884 cm^{-1} va 3048 cm^{-1} (C-N) sohalardagi tebranishlar anionit tarkibida juda kuchli intensivlikni namoyon qilgan. Bu esa, AB-17-8 qatroniga $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari yutilganidan so'ng ionitning murakkab kimyoviy tuzilishini ifodalaydi. $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari AB-17-8 anioniti bilan o'zaro ta'sirlashganda, ion bog'lanishlari hosil bo'ladi hamda bu ionitning polimer matritsasidagi funksional guruhlarning tebranish sohalariga ta'sir qiladi.

Sorbsiyadan oldin va Cr(VI) ionlari sorbsiyasidan keyin olingan anionitning rentgen nurlari diffraksiyasi (XRD) rentgenogrammasi 9-rasmda keltirilgan bo'lib, sorbsiyadan oldingi va sorbsiyadan keyingi qatronning XRD rentgenogrammalari taqqoslanganda sezilarli o'zgarish kuzatilgan. Bu o'zgarishlar qatronning mikro- va makroporalarida Cr(VI) ionlarining tarqalganligini ko'rsatadi. Adsorbsiya mexanizmi, asosan, kimyoviy sorbsiya (ion bog'lanish ko'rinishida) bilan bog'liq bo'lib, kam holatlardagi fizik adsorbsiya ham mavjud bo'lib, bu anion almashinuvchi materialning tuzilishini ma'lum darajada o'zgarishlariga olib kelgan. Rentgen nurlari diffraksiyasi (XRD) tahlilida kuzatilgan o'tkir diffraksiya cho'qqilari anion almashinuvchi materialga adsorbsiyalangan Cr(VI) ionlarining tuzlarini kristall tuzilishini tasdiqlaydi. Adsorbsiyalangan Cr(VI) ionlari tuzlari uchun kristallit o'lchami taxminan 50 nm ekanligi hisoblab topildi. Bu hisoblashlar Debay-Sherrer tenglamasi yordamida amalga oshirilgan.




9-rasm. AB-17-8 anionitining adsorbsiyadan oldin(1) va Cr(VI) ionlarining adsorbsiyadan keyingi (2) XRD rentgenogrammalari.

Demak, olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkini, dixromat ionlari eritmada bo'lgan kaliy qarama-qarshi ionlari bilan anionit g'ovaklarida kaliyli tuzini hosil qilgan va shuning uchun g'ovaklarda kristallar paydo bo'lgan. Bu kristallar esa XRD rentgenogrammalar cho'qqilar paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Ammo ushbu kristallitlar dixromat ionlarini sorbsiya qilgan sorbent tarkibidan suv molekullari ta'sirida yuvilib chiqmagan. Demak, bu kristallitlar anionitni g'ovaklarida fizikaviy adsorbsiya kuchlari bilan ushlab turilgan. Kristallitlarni hosil bo'lishi adsorbsiya jarayonida asta-sekin borgan.

Ushbu tadqiqot ishida funksional polimerlar asosida olingan uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlar orqali dixromat anionlarining sorbsiya va desorbsiya jarayonlarini 10 marta qayta takroran olib borilganda ham interpolimer tizimning sorbsion xossasi deyarli o'zgarmaganligini ko'rish mumkin. AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitlari asosida olingan yangi interpolimer tizimlarga dixromat ionlarining sorbsiya jarayonlarini eng yuqori ko'rsatkichi pH 3 muhitda borgan.

Interpolimer tizim dixromat ioniga to'yingandan so'ng, dixromat KOH ning 12,5 % suvli eritmasi bilan interpolimer tizimdan desorbsiya qilinadi.



10-rasm. Funktsional polimerlar asosida olingan interpolimer tizimga $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$ ionlari bo'yicha sorbsiya va desorbsiya sikllari sonini sorbsiya samaradorligiga ta'siri.

Interpolimer tizimlar yuqori kimyoviy barqarorlikka ega ekanligi va uni ko'p marta ishlatish mumkinligi aniqlandi. Yuqoridagi 10-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, interpolimer tizimning DAS o'n marta sorbsiya-desorbsiya jarayonida atigi 2 % o'zgardi. Desorbsiya natijasida esa kaliy dixromat tuzining 10 % konsentrlangan eritmasi hosil bo'ldi va keyinchalik uni qayta ishlab galvanik sexda qo'llash mumkin. Interpolimer tizim o'zining sorbsion xossalari bo'yicha sanoatda ishlatiladigan Amberlayt va boshqa ion almashinuvchilardan ustunligi aniqlandi.

Shunday qilib, texnologik eritmalardan dinamik sharoitda Interpolimer tizimning DASini o'rganish shuni ko'rsatdiki, adsorbsiya jarayoni diffuzion kechikishlarsiz kechadi va interpolimer tizim sig'imi dixromat ion uchun 484 mg/g ga yetadi. Olingan yangi interpolimer tizimni sanoat korxonalarida oqava suvlarini Cr (VI) ionlaridan tozalash uchun tavsiya etish mumkin.

XULOSALAR

1. Funktsional polimerlar asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega yangi interpolimer tizimlar hosil bo'lish qonuniyatlari va fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilindi. Bu esa yaratilgan interpolimer tizimlarni olinishining maqbul sharoitlarini aniqlash imkonini berdi: AB-17-8 anioniti (OH^- shaklida) va KU-2 kationitlari (H^+ shaklida) 1:1 mol nisbatda, o'zaro bir-biriga nisbatan ionitlar zarrachalarini molekular radiusidan katta bo'lgan 1-2 mm masofada joylashtirish va 48 soat davomida distillangan suv bilan yuvib faollashtirildi.

2. Mahalliy PPE-1 hamda sanoatda qo'llanadigan AN-31, AB-17-8 anionitlariga, ular asosidagi interpolimer tizimlarga suvli eritmalardan Cr(VI) ionlarini adsorbsiyasi turli xil pH muhitlarda amalga oshirildi. Bu esa, qo'llanilayotgan ion almashinuvchi materiallarga dixromat ionlarini adsorbsiya qilishning maqbul muhiti pH-3 ekanligini aniqlash imkonini berdi.

3. PPE-1, AN-31, AB-17-8 va interpolimer tizimlarga ionitlariga Cr(VI) ionlarining sorbsiya kinetikasi o'rganildi va olingan natijalar psevdobirinchilik

tartibli kinetik modelga qaraganda psevdolik tartibli kinetik modelga mos ifodalanishi aniqlandi. Jarayon tezligiga (geterogen bo'lishiga qaramasdan) metal ionlari konsentratsiyasidan tashqari ionit funksional guruhlarining konsentratsiyasi ham ta'sir qilishi isbotlandi.

4. O'rganilayotgan PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlar va interpolitizimlarga dixromat ionlari adsorbsiyasiga harorat hamda Cr(VI) ionlari konsentratsiyasini ta'sirini tadqiq qilish orqali adsorbsiya izotermalari tuzildi. Izotermalar Lengmyur va Freyndlax modellari asosida tahlil qilindi. Bu esa, izotermalar borishi yaqqolroq PPE-1 va AN-31 ionitlar uchun Freyndlaxning izoterma chiziqli tenglamasiga, AB-17-8 va interpolimer tizimlarga Lengmyur chiziqli tenglamasiga mos ravishda ifodalanishini aniqlash imkonini berdi.

5. Dixromat ionlarining PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlariga va interpolimer tizimlarga sorbsiyalanish jarayonining termodinamik parametrlari hisoblab topildi hamda ΔH^0 musbat qiymatga ega ekanligi, ya'ni adsorbsiya jarayoni endotermik ekanligi aniqlandi. Shuningdek, sistema entropiyasining ortishi sorbent yuzasidagi Cl^- ionlari bilan eritma tarkibidagi $Cr_2O_7^{2-}$ ionlari o'rtasida ion almashinish jarayoni borganligidan dalolat beradi. Sistema erkin energiyaning kamayishi xrom(VI) ionlarining PPE-1, AN-31, AB-17-8 anionitlariga va interpolimer tizimlarga adsorbsiyasi o'z-o'zicha borganligini ko'rsatadi.

6. Sanoat ionitlari bo'lgan AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitlari asosida olingan yangi interpolimer tizim oqava suvlardan Cr(VI) ionlarini ajratib olish uchun tekshirildi hamda uning yordamida "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ dagi oqava suvlar tarkibidagi dixromat ionlari jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ruxsat etgan konsentratsigacha (0.05mg/l) kamaytirish imkonini berdi. Sorbsion-desorbsion jarayonlari 10 marta qo'llashdan keyin ham sorbsion xossalari deyarli o'zgarmaganligi aniqlangan, shuning uchun olingan interpolimer tizim sanoat korxonalarida suvlaridan zaharli dixromat ionlarini tozalashda foydalanish uchun tavsiya etildi.

7. AB-17-8 anioniti va KU-2 kationitlari asosida olingan yangi interpolimer tizimlar asosida yaratilgan qurulma "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ ning markaziy mexanik ta'mirlash zavodining "Galvanik sexi" dan chiqayotgan oqava suvlarni Cr(VI) ionlaridan tozalash uchun hamda "Muborak gazni qayta ishlash zavodi" MCHJ galvanik sexidagi oqava suvlari tarkibidagi zaharli dixromat ionlarini ajratib olish uchun joriy qilindi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2019.К.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

БОТИРОВ СУННАТЖОН ХУДОЙБЕРДИ УГЛИ

**СОРБЦИЯ ИОНОВ Cr(VI) ПРОМЫШЛЕННЫМИ ИОНИТАМИ И
ИНТЕРПОЛИМЕРНЫМИ СИСТЕМАМИ НА ИХ ОСНОВЕ**

02.00.06 – Высокомолекулярные соединения

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/K724

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках [узбекский, русский, английский (резюме)] размещен на веб-странице по адресу www.ik-kimyo.nuu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: **Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич**
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юнусов Хайдар Эргашович**
доктор технических наук, профессор
Кутлимуратов Нурбек Маткаримович
доктор философии по химическим наукам, доцент

Ведущая организации: **Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится «15» марта 2025 г. В 9:00 часов на заседании разового научного совета при Научном совете PhD.03/30.12.2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (998 71) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №16) (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-67-71; 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: rector@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 г.
(протокол рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 г).

З.А. Сманова
Председатель разового научного совета по присуждению учёной степени доктора наук, д.х.н., профессор

Н.Х. Кутлимуротова
Ученый секретарь разового научного совета по присуждению учёной степени доктора наук, д.х.н., профессор

М.А.Махкамов
Председатель разового научного семинара при научном совете по присуждению учёной степени доктора наук, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Ускоренное развитие мировой экономики, рост численности населения, расширение промышленного производства и его воздействие на окружающую среду приводят к увеличению содержания тяжелых и токсичных ионов металлов в объектах окружающей среды, вызывая экологические проблемы. Особенно остро эта проблема проявляется в сточных водах гальванических цехов и кожевенных предприятий, где концентрация тяжелых и токсичных ионов металлов превышает предельно допустимые нормы. Для решения этих проблем и обеспечения эффективной очистки воды широко применяются ионообменные материалы, которые обладают высокой химической, механической и термической стабильностью, возможностью многократного использования, а также экономической эффективностью и практической значимостью по сравнению с другими методами очистки.

В мире уделяется особое внимание созданию интерполимерных систем с дальнедействующими упорядоченными взаимодействиями на основе промышленных ионообменных материалов. Научный интерес представляет оптимизация условий их получения, повышение эксплуатационной эффективности, улучшение химической и термической стабильности, а также физико-химических свойств. Важной задачей является увеличение сорбционных свойств этих систем по отношению к тяжелым и токсичным ионам металлов, их внедрение в промышленность, а также снижение себестоимости производства ионообменных материалов. Все эти направления обладают высокой научной и практической значимостью.

Сегодня в связи с высоким спросом на эффективные ионообменные материалы в нашей Республике проводится ряд научных исследований по изучению химических, физико-химических свойств и областей применения ионитов, используемых в промышленности, и внедрению их в практику. Стратегия развития нового Узбекистана на период 2022-2026 годов определяет важные задачи³, направленные на «Очистка сточных вод гальванических цехов от токсичных ионов хрома с использованием местных ионитов». В связи с этим одной из задач являются получение интерполимерных систем с дальнедействующим взаимодействием на основе промышленных ионитов, изучение физико-химических и сорбционных свойств полученных систем, химическая очистка промышленных сточных вод с их использованием.

